


SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-dekabr *)

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 13 767,2 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2018-yilning shu davriga nisbatan 7,3 % ga oʻsdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 486,1 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 121,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlarining tovar aylanmasi 12 281,1 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 105,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 778,3 mlrd. soʻm (2018-yilning shu davriga nisbatan 93,4 %)ni tashkil etdi.


**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. soʻm)**



2018-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining oʻsish surʼatlari kuzatilib, nisbatan yuqori oʻsish surʼatlari Samarqand va Kattaqoʻrgʻon shaharlarida hamda Jomboy, Samarqand, Pastdargʻom, Payariq, Ishtixon va Urgut tumanlarida qayd etildi.

*-dastlabki maʼlumot

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)
(2019-yil yanvar-dekabr)





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2018-yilning mos davriga nisbatan 21,5 % ga o'sdi va 1 486,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,8 % ulushiga to'g'ri keldi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 12 281,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 5,8 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,2 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


2018-yil yanvar-dekabr

2019-yil yanvar-dekabr



■ Yirik korxonalar
■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari

Chakana savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, (%)
(2019-yil yanvar-dekabr)




Tahlil natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9 %), Nurobod (99,5 %), Bulung'ur (99,4 %), Qo'shrabot (99,3 %) va Paxtachi (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 10,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (27,1 %), Samarqand tumanida (35,0 %) va Pastdarg'om tumanida (5,0 %) kuzatildi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hamda yirik korxonalar
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**
(2019-yil yanvar-dekabr)


Hudud nomi	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	2018-yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd. so'm)	2018-yilning shu davriga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	1 486,1	121,5	12281,1	105,8
Samarqand shahri	1 060,8	128,8	2858,8	101,9
Kattaqo'rg'on shahri	1,2	70,3	794,0	107,6
<i>tumanlar:</i>				
Bulung'ur	4,6	-	755,4	105,9
Jomboy	4,5	-	392,3	106,8
Ishtixon	14,5	-	566,7	104,4
Kattaqo'rg'on	7,1	-	574,8	105,3
Narpay	5,3	-	484,2	105,8
Nurobod	2,8	-	530,6	106,0
Oqdaryo	5,4	-	298,4	104,1
Payariq	7,3	-	511,8	105,6
Pastdarg'om	51,5	64,3	984,3	111,1
Paxtachi	4,6	-	484,0	105,5
Samarqand	268,7	89,1	498,8	121,3
Tayloq	4,8	-	387,1	105,3
Urgut	39,7	2,5 m.	1705,9	105,6
Qo'shrobot	3,4	-	453,8	105,7

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)
(2019-yil yanvar-dekabr)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari chakana savdo tovar aylanmasi hajmi yuqori bo'lgan Samarqand shahri 2 858,8 mlrd. so'm, Urgut tumani 1 705,9 mlrd. so'm, Pastdarg'om tumani 984,3 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on shahri 794,0 mlrd. so'm, Bulung'ur tumani 755,4 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on tumani 574,8 mlrd. so'm, Ishtixon tumani 566,7 mlrd. so'm va Nurobod tumani 530,6 mlrd. so'mlik hajm bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi, (%)
(2019-yil yanvar-dekabr)



2019-yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 3 586,6 ming. so'mni tashkil qilib, 2018-yilning shu davriga nisbatan 5,1 % ga ko'paydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 2018-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (8 954,8 ming. so'm), Samarqand shahri (7 225,1 ming. so'm) va Bulung'ur tumani (4 119,2 ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Oqdaryo (1 933,8 ming. so'm), Tayloq (1 977,2 ming. so'm) va Payariq (2 102,3 ming. so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

(2019-yil yanvar-dekabr)

Hududlar nomi	Ming. so‘m	2018-yilning shu davriga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	3 586,6	105,1
Samarqand shahri	7 225,1	106,3
Kattaqo‘rg‘on shahri	8 954,8	105,8
<i>tumanlar:</i>		
Bulung‘ur	4 119,2	104,4
Jomboy	2 338,1	105,2
Ishtixon	2 320,3	104,7
Kattaqo‘rg‘on	2 158,7	104,6
Narpay	2 325,1	105,1
Nurobod	3 591,9	104,4
Oqdaryo	1 933,8	104,0
Payariq	2 102,3	104,7
Pastdarg‘om	2 962,9	105,1
Paxtachi	3 426,4	104,5
Samarqand	3 083,9	105,4
Urgut	3 485,1	104,3
Tayloq	1 977,2	104,2
Qo‘shrabot	3 524,8	104,2

2019-yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,2 % ni tashkil etib, 304,9 mlrd. so‘mga yetdi, yoki 2018-yilning mos davriga nisbatan 9,9 % o‘shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 90,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Samarqand viloyatining
ulgurji savdo tovar aylanmasi
(2019-yil yanvar-dekabr*)**

2019-yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 225,3 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 3,4 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra 3 758,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning shu davriga nisbatan 102,1 % ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 71,9 % ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 1 467,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning shu davriga nisbatan 6,9 % ga o'sdi.


**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hamda yirik korxonalarining
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi
(2019-yil yanvar-dekabr)**

Hudud nomi	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	2018-yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd. so'm)	2018-yilning shu davriga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	1 467,2	106,9	3 758,1	102,1
Samarqand shahri	637,7	96,9	1759,9	102,4
Kattaqo'rg'on shahri	0,2	-	80,5	101,8
<i>tumanlar:</i>				
Bulung'ur	0,2	-	100,9	102,5
Jomboy	0,5	-	73,8	101,5
Ishtixon	3,0	-	55,8	102,1
Kattaqo'rg'on	0,3	-	43,3	101,2
Narpay	7,1	-	21,4	101,2
Nurobod	0,1	-	8,9	101,3
Oqdaryo	19,0	-	226,7	101,2

Hudud nomi	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	2018-yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd. so'm)	2018-yilning shu davriga nisbatan, % da
Payariq	36,8	-	141,7	101,8
Pastdarg'om	745,4	104,9	87,2	102,1
Paxtachi	0,2	-	5,6	101,4
Samarqand	16,0	3,9 m.	289,7	102,1
Tayloq	0,1	-	789,8	101,7
Urgut	0,3	-	70,0	102,1
Qo'shrabot	0,4	-	3,1	101,4


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, (%)

2018-yil yanvar-dekabr



- Yirik korxonalar
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari

2019-yil yanvar-dekabr



- Yirik korxonalar
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari

*-dastlabki ma'lumot

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
'Tel.:71-230-85-23
66-235-65-80